

Soliyeva Yulduzxon

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(BT) yo'nalishi 1-kurs magistranti.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUV MATERIALLAR MAZMUNINI LOYIHALASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda o'quv materiallari mazmunini loyihalash jarayoni ta'lim metodikasi va pedagogik nazariyalarga asoslanadi. Ushbu tadqiqotda o'quv materiallarini loyihalashning nazariy asoslari, pedagogik yondashuvlar, ta'lim mazmunini tanlash tamoyillari va samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olinib, dasturiy ta'minot, interfaol metodlar va didaktik vositalarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'quv materiali, loyihalash, nazariy asoslar, pedagogik yondashuv, interfaol metodlar, ta'lim mazmuni, didaktik tamoyillar, samaradorlik, psixologik xususiyatlar.

Bugungi kun zamonaviy ta'limini zamonaviy usul va metodlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu jumladan, bir qarashda oddiydek ko'ringan loyihalash texnologiyasi ham o'quv jarayonida samaradorlikni yanada oshirishga atroflicha xizmat qilmoqda. Shu o'rinda bu texnologiyaning asl negizi, uni amalga oshirish shakllari, ko'zlanadigan natija va bu metod orqali ta'limga olib kiriladigan unsurlar haqida fikr yuritamiz.

Loyihalash (lotincha, projectus – olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz) metodi o'z nomi bilan kelgusidagi ishlarni amalga oshirishda rejalashtirish bo'lib, projekt ma'lum bir hisobkitoblarga, chizmalarga va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir.

Loyihalash asosida o'qitish ta'lim-tarbiyaning ma'lum bir vazifalarini hal qiladi: loyiha asosida o'qitiladigan har bir ishtirokchida shaxsiy ishonchning o'sishiga yordam berish, uni o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi va refleksiyasiga yordam berish. Ko'rsatilganlar "yutuq vaziyati"ni darsda (yoki darsdan tashqari) so'zda emas, amalda his qilish orqali o'quvchi o'zining kerakligi, omadli ekanligini va turli muammoli vaziyatlarni bartaraf qila olish qobiliyatiga ega ekanligini bilishiga olib keladi. O'quvchi loyiha metodi asosida o'qish jarayonida o'zini va o'zidagi imkoniyatlarini his qiladi. Jamoada birgalikda ishlash davomida o'z hissasini anglaydi, hamda loyiha topshirig'ini bajarish jarayonida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, loyihani bajarish vaqtida o'quvchilarda natijaga erishish uchun jamoa bo'lib ishlashning ahamiyatini anglash rivojlanadi. O'quvchining ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida hamkorlik faoliyati, ularda kommunikativ xususiyatni rivojlantirishni ilhomlantirish, muammolarni hal qilishda o'z yondashuvi, o'z nuqtai nazariga ega bo'lish ko'nikmasi va shu bilan birga boshqalarni eshita bilish, o'zida ba'zida o'z fikriga to'la qarama-qarshi bo'lgan boshqalarni eshita bilish xususiyatini rivojlantiradi. Loyihalar metodi o'quvchilarda mushohada-tafakkur qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Loyiha metodi orqali o'quvchida quyidagi konikmalarni rivojlantirish maqsad qilib qo'yiladi:

Tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish;

-muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammolarni anglash, manba va adabiyotlardan zaruriy ma'lumotni ajratib olish va ulardan foydalanish;

- amaliy vaziyatlarni kuzatishni tashkil qilish, ularning natijalarini belgilash va tahlil qilish;

- farazlar qurish, ularni tekshirishni amalga oshirish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish.[1]

Ko'rsatilgan maqsadlar ta'lim kengligini alohida tashkil qilib, shaxsning sifatlariga ta'sir qiladi. O'quvchida o'zgarish uchun shaxsiy o'sish jarayoni boradi. «Men» so'zi konsepsiyasini amalga oshirish uchun qobiliyatni shakllantiradi, dunyoni bilish va tadqiq qilish, bilishning tafakkur vositalarini o'zlashtirish amalga oshiriladi. O'qitish amaliyotida loyiha metodi qo'llanilganda o'quvchida turli qobiliyatlar rivojlanadi, an'anaviy o'qitishda esa (dars otishda) "bilimlar" beriladi. An'anaviy ta'limda o'quvchiga bilim berishda o'qitishning tas'viriy-tushuntirish metodi ustuvor bo'ladi. O'quv jarayoni bu metod bilan to'la nazorat qilinadi, o'quvchilarning ustidan nazorat, mavzuni reproduktiv shakldagi so'rovi amalga oshiriladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi bilimlar, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, faoliyatning yetakchi ko'rinishini qayta tasvirlash bo'ladi. Loyiha metodi esa o'qitilayotganning shaxsiga qaratilgan bo'ladi. Shaxsning rivojlanishini ko'rsatgichlaridan biri o'quvchilarning mushohada qilish ko'nikmalari (sintez, qiyoslash, umumlashtirish, turkumlash, induksiya, deduksiya, mavhumlashtirish va boshqa)larni o'zlashtirishlari bo'ladi. Eng asosiysi esa, o'quvchida o'z shaxsining o'sishiga ehtiyoj qiziqish paydo b'olishi, o'zini o'zgartirish, hissiy-obrazli sohani rivojlanishi, hissiy qadriyat munosabatlari malakasini olish boladi. Loyiha asosida ana shu tarzda o'qitish sinf-dars tizimiga muqobil turadigan samarali metod bo'ladi. Lekin ananaviy meyorini to'la siqib chiqarishi mumkin emas. Chunki jahon ta'lim tizimida yuz yil davomida pedagogik usullar, yondashuvlar, texnologiyalarning oltin zahirasi to'plandi. Mutaxassislarining fikricha, loyiha metodi ta'limning boshqa ko'rinishlariga qo'shimcha sifatida foydalanilib, shaxsning o'sishini jadallashuvi sifatida chiqadi. O'quv loyihasi yoki tadqiqot o'qituvchi nuqtai nazaridan qaraganda bu rivojlanish, o'qitish va tarbiyaning integrativ didaktik vositasi. U o'quvchida loyihalash va tadqiqotning o'ziga xos o'quv ko'nikmalarini yuzaga kelishi va rivojlanishiga imkon beradi.

O'quv loyihasi yoki tadqiqot o'quvchilarga aynan quyidagilarni o'rgatadi:

- muammolashtirish (muammolar kengligini ko'zdan kechirish va muammolar ostidagi muammolarni ajratish, bu muammolardan kelib chiqadigan yetakchi muammo va topshiriqlarni qo'yish.

- o'quvchining mazmunli faoliyatini shakllantirish va rejalashtirish;

- o'z-o'zining faoliyatini tahlil qilish va refleksiya (loyihaning muammolarini yechishning natijasi va muvaffaqiyatli bo'lishi) ;

- o'z faoliyati natijalarini va ishning borishini ko'rsatish

Loyihalash texnologiyasi ta'limda o'qituvchi va o'quvchilarni birdek ishlashga, o'quvchilarda mustaqillikni yanada oshirishga xizmat qilar ekan, bu o'rinda undan kutiladigan natijalar ham yangilik sifatida qaralishga munosib ishlar bo'lishini nazarda tutadi. Loyihalash metodlari orqali o'qitishda quyidagi natijadorliklar hosil bo'ladi:

- O'qituvchining kuzatuvchi va yo'l boshlovchi sifatidagi ishtiroki, talabalarning esa asosiy loyiha mualliflari, loyihani bajaruvchilari bo'lib ishlashlari;
- Har bir o'quvchilarning ma'lum dolzarb yoxud kichik muammoni aniqlab, uning uchun bajariladigan ishlar rejasi hamda yechimini topishiga alohida o'qituvchi tomonidan e'tibor berilishi;
- Birgina katta muammoga ham turlicha usullar orqali yondashuvni ta'minlash zamirida mukammal loyiha ishlarini yarata olish tajribalari paydo bo'lishi;
- Fikrlashi, qobiliyati, bilim darajasi bir-biriga yaqin o'quvchilardan kichik guruhlarni tashkil etish. Va bu asosida lohiyalash jarayonidagina emas, balki boshqa jamoaviy ishlarda ham bir xil tipdagi talaba guruhi bilan ishlashni osonlashtirish.

Loyihalash texnologiyasidan foydalanish shuningdek, o'quvchilarga individual va differensial yondashish imkonini beradi. Metod amalga oshirilish jarayonida qamrab oladigan jihatlar, doimiy muhim hisoblanuvchi unsurlar ham bo'lib, ular shulardan iborat:

- Loyiha tuzilishi yaxshi ishlangan bo'lishi;
- Loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar uchun tadqiqot predmeti, dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati, foydalaniladigan metodlar, tajribalar o'tkazish;
- Natijalarni rasmiylashtirish metodlari aniq bo'lishi lozimligi.

Loyihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

1- bosqich. Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichma-bosqich natijalari ham ko'rsatiladi.

2- bosqich. Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o'quvchilar mustaqil ravishda individual va guruh bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajaradilar. Material, axborot to'playdilar. To'plangan ma'lumotlarni muhokama qiladilar. Jadvallar, grafiklar ishlab chiqadilar. Namoyish etiladigan, illyustrativ materiallar tayyorlashadi.

3- bosqich. Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xoniaki varianti yozib chiqiladi. So'ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talablar asosida taxlanadi.

4- bosqich. Loyihaning so'nggi varianti ekspertga, taqr ga beriladi. Bunda matn aniq asoslangan bo'lib, bajarilgan ishlarning mazmuni va erishilgan natijalarni gavdalantirishi kerak. Matilda, albatta, jadvallar, grafiklar, chizma, dasturlar va boshqa shunga o'xshash materiallar bo'lishi shart.

5- bosqich. Ish taqrizga beriladi. Loyihaga ekspert xulosasi olinadi, tashqi taqriz natijasini elon qilingach, lugallangan hisoblanadi.

6- bosqich. Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida komissiya a'zolari tomonidan baholanadi. Jyuri a'zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi. Tayyorlangan loyihani ko'rib chiqib, tanlanib, so'ngra tayyorlangan hisobot ko'rib chiqiladi. Hay'at ishni baholashi uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bu mezonlar

muammoni o'rganish darajasi, matnni aniq. tushunarli tarzda bayon qilinishi, o'ziga xosligi, rasmiylashtirish sifati, ko'rgazmali, namoyish materiallardan foydalanilgani, berilgan takliflar va ularni muammoni yechishga yordam berishi va boshqa jihatlarini mujassamlashtirilgan bo'lishi kerak. Dars jarayonida kichik guruhlar tayyorlagan loyihalarni o'qituvchi boshchiligida o'quvchilardan tuzilgan hay'at baholashi mumkin.[2]

Boshlang'ich ta'lim bolalarning keyingi bilim olish jarayoniga asos soluvchi muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, bu bosqichda o'quv materiallarining mazmuni puxta o'ylangan, yosh xususiyatlariga mos va samarali bo'lishi talab etiladi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'quv materiallarini loyihalashning nazariy asoslari, pedagogik yondashuvlar va didaktik tamoyillar tahlil qilinadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quv materiallarini loyihalashning ahamiyati

O'quv materiallarini to'g'ri loyihalash quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

Bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish.

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish.

Mustahkam bilim hamda amaliy ko'nikmalar shakllantirish.

Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish.

Boshlang'ich ta'limda o'quv materiallarini loyihalash yosh bolalarning psixofiziologik xususiyatlari va ta'lim jarayonining qonuniyatlari asosida olib boriladi.

O'quv materiallarini loyihalashning nazariy asoslari

O'quv materiallarini loyihalashda quyidagi nazariy asoslar muhim ahamiyatga ega:

1. Didaktik tamoyillar

Ilmiylik – o'quv materiali ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

Tizimlilik va izchillik – materiallar bosqichma-bosqich, mantiqiy tartibda taqdim etilishi lozim.

Faollik va mustaqillik – o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etishi va mustaqil fikrlashi kerak.

Hayot bilan bog'liqlik – o'quv materiali kundalik hayot bilan uzviy bog'lanishi zarur.

2. Pedagogik yondashuvlar

Kompetensiyaviy yondashuv – o'quvchilar bilim olish jarayonida amaliy ko'nikmalar hosil qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchining qobiliyat va ehtiyojlari inobatga olinadi.

Interfaol yondashuv – o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interfaol metodlar qo'llaniladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv materiallarini loyihalash tamoyillari

Boshlang'ich ta'limda o'quv materiallarini samarali loyihalash uchun quyidagi tamoyillar asosida ish olib borish lozim:

Yosh xususiyatlariga moslik – boshlang'ich sinf o'quvchilari materialni tushunishi va o'zlashtirishi oson bo'lishi kerak.

Vizualizatsiya va interfaollik – turli tasvirlar, diagrammalar va multimedia vositalari orqali tushuntirish samaradorlikni oshiradi.

Qiziqarlilik va o'yin elementlari – darslarda didaktik o'yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish motivatsiyani oshiradi.[3]

Loyiha ilmiy metodik jihatdan anglangan, umumlashtirilgan, turkumlangan va uni samarali qo'llash doiralari belgilangan bolishi kerak. Pedagogikada innovatsiyalarning kuchli rivojlanishi loyihalash metodini keng qo'llash imkoniyatini beradi va o'quv loyihalarini turkumlash, ularni metodik bajarish, ta'lim tizimiga o'quv loyihalarining kiritilishi bilan yangi kurslarning shakllanishi bilan zarur bo'ladi. O'quv yurtida ta'lim-tarbiyada o'quv loyihalari yetakchi o'rinni egallaydi. Bilishning bunday maqsadlari uchun bilimning turli sohalari jalb qilinadi. Loyihalar turli darajalar bo'yicha turkumlanadi. Misol uchun, mavzu sohalari bo'yicha, faoliyat hajmlari bo'yicha, amalga tatbiq bo'yicha, ijrochilar soni, natijalari muhimligi bo'yicha. Loyihalar tipiga tegishli ravishda ularning barchasi yakka mualliflik xususiyatiga ega bo'lib, u noyob bo'ladi. Barcha loyihalar qandaydir bir maqsadga erishishga yo'nalgan bo'ladi. Shu bilan birga vaqtda vaqtinchalik cheklashlar bo'ladi. O'quv loyihalari turli xil bo'ladi. Bir dars mashg'ulotiga tegishli bo'lganidan toki bir yil muddatga mo'ljallangan loyihalar. Yakka tartibdagi, guruh va turli yoshga mo'ljallangan umum maktab miqyosida amalga oshiriladigan loyihalar bo'ladi. Loyiha natijalari oz shakliga kora har xil bolishi mumkin. Misol uchun, videofilm, multimedia, prezentatsiya, spektakl, qonun loyihalari, o'yinlar va boshqalar. Vaqt bo'yicha loyihalar mini loyihalarga bo'linadi. Ular dars yoki darsning bir qismini egallaydi. Qisqa muddatli loyihalar 2-6 darslarning davomida amalga oshiriladi. O'rta muddatli loyihalarda darsdan tashqari va dars mashg'ulotlarida 12-15 dars mashg'ulotlari, shuningdek uzoq muddatli loyihalarga sarflanadi. Shuningdek to'la sikl darsdan tashqari bajariladi. Loyihani bajarish orqali o'quvchi o'z kuchini, o'z bilimlarini ishga solish, foyda keltirish, o'zi erishgan natijani ko'pchilik oldida ko'rsatadi. Bu o'quvchilarning ko'pincha o'zlari vazifa ko'rinishida shakllantirgan va qiziqarli muammoni yechishga qaratilgan faoliyatidir. Ushbu faoliyatning natijasi muammoni yechishning topilgan usuli – amaliy xususiyatga ega. U muhim amaliy ahamiyatga ega va kashfiyotchilarning o'zi uchun qiziqarli va ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'quv materiallarini loyihalash pedagogik yondashuvlar va didaktik tamoyillarga asoslanishi lozim. To'g'ri tanlangan va loyihalashtirilgan o'quv materiallari bolalarning bilishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, ularda mustahkam bilim hamda amaliy ko'nikmalar shakllanishiga yordam beradi. Shuning uchun o'quv materiallarini ishlab chiqishda yosh xususiyatlari, qiziqishlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari hisobga olinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son.

2. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. // «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son.
3. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y.
4. Oliy pedagogik o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyasining materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000
5. A.Qayumov, I.Parmonova “Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodi imkoniyatlari va uni amalga oshirish bosqichlari.” 2023
6. Soliyeva.Y „Boshlang'ich sinflarda o'quv materiallari mazmunini loyihalashning nazariy asoslar” Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi IF: 5.141. 20, 25-b